



HIRS VA TA'MAGIRLIK HAMDA QANOATNING TALABALAR RUHIY TARBIYASIGA TA'SIRI

Ismoilova Sh.N.

UrIU "Pedagogika va boshlang'ich ta'lim metodikasi" kafedrasida o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: sabr-qanoat, saodat, ko'ngil boyligi, shukr qilish, boyluk, xirs, tamagirlik, ochko'zlik, jinoyat, xorlik, baxillik, adovat, mol-dunyo.

Ключевые слова: терпение, счастье, довольство, благодарность, богатство, жадность, жадность, преступление, унижение, скупость, вражда, богатство.

Key words: patience, happiness, contentment, gratitude, wealth, greed, greed, crime, humiliation, avarice, enmity, wealth.

Bugungi kunda maklakatimizda huquq jinoyat motivlaridan biri tamagirlik O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 56-moddasi «k» bandida g'arazli yoki boshqa past niyatlarda jinoyat sodir etilishi jazoni og'irlashtiruvchi holat sifatida belgilab qo'yilgan. O'rta Osiyo va Qozog'iston musulmonlar diniy boshqarmasining muftiysi islom ulamolari, millatlararo ittifoqining a'zosi Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf ham Hirs va ta'magirlik hamda qanoat haqida va ularning davosi haqida "ruhiy tarbiya" asarida to'xtalib quyidagi fikrlarni ilgari surgan. Musulmon inson mol-dunyoga hirs qo'ymaydi va kishilar qo'lidagi boylikka tamagirlik qilmaydi. U zarur narsa bilan kifoyalanadi va bori-ga qanoat qiladi. Tamagirlik arabcha "tama'a" so'zidan olingan bo'lib, bir narsani qalbdan kuchli orzu qilishga aytiladi. "Tama'qildi" bilan "hirs qo'ydi" bir xil ma'noni anglatadi. Tamagirlik— birovdan bir narsa kutish va uning ilinjida bo'lish, moddiy naf ko'rish, ochko'zlik, dunyo orttirishga intilish va shu kabi g'arazli niyatlar bilan qilingan xatti-harakat.

Tama dunyoning o'tkinchi hoji-havasi yo'lida bo'lsa, yomon narsa hisoblanadi. Umar ibn Xattob roziyallohu anhu: "Bilingki, tama faqirlikdir. Tama qilmaslik boylikdir", degan.

Ali ibn Abu Tolib roziyallohu anhu aytadi: "Ko'pgina aqllarning qulashi tamalarning chaq-mog'idandir".

Ka'b va Abdulloh ibn Salom roziyallohu anhumolar birga bo'lishganda Ka'b Roziyallohu anhu:

– Ey, Ibn Salom! Ilm arboblari kimlar? – dedi.

– Unga amal qiluvchilar, – ded i.

– Bilganlaridan keyin ulamolarning qalbidan ilmni ketkazgan narsa nima? –dedi.

– Tamagirlik, nafsning ochko'zligi va odamlardan hojatini ravo qilishni so'rash, –deb javob berdi.

Tamagirlikning zararlari:

1. Tamagirlik iymon zaifligining alomatidir.
2. Tamagirlik Alloh taologa bo'lgan ishonchdagi nuqsondir.
3. Tamagirlik Alloh taolo haqida yomon gumonda bo'lishdir.
4. Tamagirlik o'z egasiga doimiy kambag'allikni jalb qiladi.
5. Tamagirlik doimiy charchoqlikdir.

O'zi uchun bironing molidan umidvor bo'lishni or deb bilish. Kim o'zini iffatli tutishga urinsa, Alloh taolo uni iffatli qilib qo'yishi turgan gap. “Kim bexojatlik talab qilsa, Alloh uni behojat qilur”. Bu esa o'zida bironing sariq chaqasiga ham ehtiyoji yo'qligini ishor qilish.

Sabrl i kishi risqning oziga ham, yo'qchilikka ham chidab, o'zini xor qilmay, boshini tik tutib kun ko'radi. Sabr ne'matidan bebahrabanda esa dunyoningyarmiga ega bo'lsa ham tiyinning ustida um-baloq oshib o'zini xor qiladi, ochko'zligini bildirib qo'yadi. Haqiqiy boylik mol-dunyoning ko'pligida emas, nafsning to'qligidadir.

Abu Hozim: “Kimda uch narsa bo'lsa, aqli raso bo'lur:

1. O'zini bilsa
2. Alloh taolo bergan rasqqa qanoat qilsa
3. Tilini tiysa

Ba'zi hukamolar shunday demishlar: “Agar tamagirlikka”:

“Otang kim?” deyilsa,

“Qadarga shak keltirish,” deydi.

“Hunaring nima?” deyilsa,

“Xorlikni kasb qilish” deydi.

“G'oyang nima?” deyilsa,

“Mahrumlik”, deydi.

Tamagirlik azizni xor qiladi. Tamasizlik xorni aziz qiladi.

Qanoat - qismatga rozi bo'lish, taqdir etilgan narsalarga mamnun bo'lish, jizzaki va shoshqaloq bo'lmaslik, qo'lidagiga rozi bo'lish, o'zgalarning moliga va haqiga ko'z olaytirmaslik, yeyish, kiyinish va maskan ehtiyojini zarurat



chegarasida saqlash, isrofga yo‘l qo‘ymaslik, tejamkorlikka rioya qilish, ochko‘z bo‘lmaslik. Mutasavviflar nazdida qanoat bitmas-tuganmas xazinadir. Qanoatkor shunday kishiki, berilgan ne‘matga ziyodasi bilan shukur qiladi, qo‘lga kiritgan ne‘matini boshqalarga ham nasib bo‘lishini istaydi. Oqil sufiy dunyo ishini qanoat bilan, oxirat ishini hirs va jahd bilan, din ishini aql bilan bajaradi.

Ulamolar uni shunday ta’riflaydilar: qanoat – o‘zidagi ne‘matga shukur qilish, boshiga tushgan musibat, qashshoqlik va qiyinchiliklarga sabr-bardoshli bo‘lish. Qanoat Alloh taoloning taqdiroti va taqsimotiga rozilikdan paydo bo‘luvchi ko‘ngil boyligi bo‘lib, u hasad, tama, ochko‘zlik, adovat, baxillik kabi illatlarning shifosidir. Abdulla Avloniy aytadi: “Janobi Haqning amriga itoat qanday saodat esa, taqdiriga qanoat ziyoda baxtiyorlikdur”. Demak, qanoat komil mo‘minlikning belgilari-dan ekan. Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam): “Sizlar qanoatni o‘zingizga lozim tuting. Chunki, qanoat tuganmas boyligidir”, dedilar.

Boshqa muborak hadisda esa bunday deyilgan: “Boyluk mol-dunyoning ko‘pligida emas, balki, (haqiqiy) boyluk ko‘ngil boyligidir”.

Muhammad Husayn aytadi: “Qanoat aqlli odamlarning fazilatidir. Ammo qanoat rizq qidirish va kasb bilan shug‘ullanishdan tiyilish degani emas. Balki, kasb tufayli topgan narsasiga shukur qilish va ortiqchasiga intilmaslikdir”. Buning boisini anglash uchun ulug‘ sahobiy Abdulloh ibn Mas‘ud (roziyallohu anhu)ning ushbu so‘zlariga quloq tutishimiz lozim

Biror kun yo‘qki, bir farishta: “Ey Odam bolasi, senga kifoya qiladigan oz narsa seni tug‘yonga ket-kazadigan ko‘p narsadan yaxshiroqdir”, deya nido qilmasa. Qanoatli inson umri mobaynida doimo baxtiyorlikni his etib yashaydi. Shu bilan birga, boshqalarga ham yaxshi muomalada bo‘ladi, ularni ham o‘zi kabi shodlik sari yetaklaydi. Shuning uchun qanoatli kishini barcha hurmat qiladi. Ha-kimlardan biri aytdi: “Odamlar ichida eng uzoq g‘am-anduh chekuvchi kimsa hasadchi ekanini, hayoti eng baxtiyor kechuvchi kishi esa qanoatli inson ekanini ko‘rdim”. Muhammad Zehniy shunday yozadi: “Qanoat nima?” deb so‘radilar. Javob berib aytili: “Birovlarning qo‘lidagi narsani ko‘rib, mayus bo‘lmaslik va tamagirlikdan qochish. Chunki, tamagirlik, albatta, kambag‘allik sari yetaklaydi”. Xirs va tamagirlikning davosi haqida Shayx Muhammad Sodiq Sodiq Muhammad Yusuf o‘zining ruhiy tarbiya asarida : Bu davo sabr, ilm va amaldan iboratdir.

Xirs va tamagirlikning davosi besh narsa ila bo‘ladi:

1. Maishatda tejamkor bo‘lish va sarf- harajatda muloyim bo‘lish.

2. O‘ziga yetarli narsa muyassar bo‘lganda, kelajagi uchun istirobga tushmaslik.

3. Qanoatning foydasini, xirs va ta‘magirlikning zararini tushunib yetish.

4. O‘tgan qavmlardan dunyoga xirs qo‘ygan va tamagir bo‘lganlarning holi nima bo‘lganiga nazar solish

5. Mol jamlashning xatarini to‘liq tushunib yetish

Qanoat – insoniy fazilatlarining eng oliysidir. Bunday xislatga ega bo‘lgan kishi baxillik, xasad kabi illatlardan holi bo‘ladi. Qanoat borasida Rasululloh Sallallohu alayhi vassalamning hayo-lari barchamiz uchun kata ibratdir.

Payg‘ambarimiz Sallallohu alayhi vassalam shunday marhamat qilganlar: “Ehtiyojidan ortmaydigan rizqqa ega bo‘lib, Alloh bergan ana shu rizqqa qanoat qilib yashagan musulmon kishi batahqiq, najot topibdi.”

Qanoatga Hazrat Alisher Navoiy yuksak baho berib: “Kimki qanoatni o‘ziga kasb qilgan bo‘lsa, bilki, qanoat uni boy qiladi. Oltin, kumush bilan zebu ziynatlarni boyluk deb bilma, balki, haqiqiy boyluk qanoat oltimlaridadir. Qanoat oltini hech qachon yo‘qolmaydi. Ana shu oltinni qo‘lga kiritib, shu orqali boyishga harakat qil. Qanoat mulkidagi saroydan joy olishni mo‘ljallangan odam yaxshilardan yaxshisidir. Kimki Alloh taoloning bergan ahsonidan xursand bo‘lsa, bu dunyoda ham, u dunyoda ham baxtli bo‘ladi. Qanoat qilgan kishining joyi izzat taxtidadir.” , degan edi.

Islom shariati mol- dunyoni halol yo‘l bilan topishga va shukrini doimiy tarzda ado etishga buyuradi. Shuning bilan birga musulmonlarni oxiratda bu dunyoni tark qilmaslikka, dunyoni deb oxiratni unutmaslikka chaqiradi. Lekin dunyo toppish uchun yomon yo‘llarga kirmasdan , halol yo‘l bilan kifoyalanish, qanoatli bo‘lish darkor. O‘tmishda o‘tgan solih mo‘minlarning ayollari va qanoatli farzandlariota-onalari ro‘zg‘or tashvishi bilan ko‘chaga chiqib ketayotganlarida : “Biz har qanday qiyinchilikka , hatto ochlikka ham chidaymiz , ammo do‘zax azobiga bardosh bera olmaymiz. Shuning uchun bizga halol rizq olib keling!”, - der ekanlar.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, yurtimiz tinch, hayotimiz osuda va farovon bo‘lishiga qara-masdan, hozirgi kunda jamiyatimizda turli huquqbuzarliklarning sodir bo‘lishi, yoshlar orasida jinoyatchilikning ortib borishi, shuningdek, oilaviy kelishmovchiliklar va ajrimlarning ko‘payishi, aksar hollarda, qanoatsizlikdan kelib chiqayotgani bor haqiqat. Demak, ana shunday noxushliklarning muolajasi va oldini olish chorasini qanoat deb atalmish ko‘ngil boyligini hosil qilishdan izlashimiz kerak. Yaratgan barchalarimizni sabr qanoatli qilsin.

**Adabiyotlar:**

1. Shayx Muhammad Sadiq Muhammad Yusuf “Ruhiy tarbiya” 1-juz Poklanish. “Sharq” nashriyoti. Toshkent 2023 y
2. Imom G‘azzoliy, “Mukoshafatul-qulub al-muqarrib ila hazrati allomil-g‘uyub, fi fazlil-qona’ati”
3. Shayx Muhammad Sadiq Muhammad Yusuf “Tafsiri Hilol”. “Sharq” nashriyoti, Toshkent 2012.
4. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi.
5. <https://vaqf.uz/uz/lists/view/>
6. <https://uz.delachieve.com/>
7. <https://ilmlar.uz/>

РЕЗЮМЕ

Mazkur maqolada Shayx Muhammad Sadiq Muhammad Yusufning “Ruhiy tarbiya” asaridan xirs, tamagirlik va qanoat hamda ularning davosi, inson ruhiy tarbiyasiga ta’siri haqidagi g‘oyalari o‘rganilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье изучаются идеи Шейха Мухаммада Сади́ка Мухаммада Юсуфа о похоти, жадности и довольстве и их излечении из книги «Духовное образование».

SUMMARY

In this article, Shaykh Muhammad Sadiq Muhammad Yusuf’s ideas about lust, greed and contentment and their cure from the book «Spiritual Education» are studied.